

## **Ingliz tili o'qitishda motivatsiyaning o'rni**

***Nodira Saidova Djaxangirovna***

*Toshkent viloyati Qibray tumani sonli IDUM Ingliz tili*

Motivatsiya hamda munosabat chet tilini o'rganuvchi talabalarda ishonchni uyg'otib, tilni tez va samarali tarzda o'rganishlariga yordam beradi. Shuning uchun, chet tilini o'rgatuvchi pedagoglar mana shu faktorlarni inobatga olishlari muhim. (Latchanna & Dagnew, 2009) fikriga ko'ra, "Munosabat inson xulq-atvorini o'rganishda muhim faktorlardan biri hisoblanib, insonning ishonchi hamda his tuyg'ularini o'z ichiga oluvchi ruhiy holat sifatida ta'riflaydi". Ishonish deganda chet tilini muvaffaqiyatli o'rganishga bo'lgan munosabatimiz tushuniladi. Lenartson fikriga ko'ra, agar talabalar yangi chet tilini muvaffaqiyatli o'zlashtirishtira olmasligiga ishonishsa, bu ularga tilni o'zlashtirishga to'siq bo'ladi. Til o'rganishga bo'lgan salbiy munosabat hamda motivatsiyaning yetishmasligi chet tilini o'rganishga xalal beradi. Ammo, talabalarni chet tilini o'rganishga bo'lgan salbiy munosabatini, ijobiy munosabatga o'zgartirib, ijobiy natijaga erishish mumkin. Chet tilini o'rganishni boshlashda, ijobiy munosabat borligi samarali ta'sir ko'rsatadi. Tadqiqotchilarining fikriga ko'ra, tilni o'rganuvchilar nafaqat axborot almashuvchi hamda muammoni hal qilivchilar, balki, butun bir shaxsning qalbi, his-tuyg'ulari, ishonchi, individualligida ham o'z aksini topgan. Shuningdek, chet tilini o'rganishga motivatsiyanining roli muhim.

Motivatsiya va inson irodasi chet tilini o'rganishda muhimroq ijtimoiy faktorlardan eng muhimi hisoblanadi. Talabalar o'rtasida chet tilini o'zlashtirish bo'yicha ijobiy munosabatni shakllantirish orqali ham motivatsiya berishimiz mumkin. Tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, chet tilini o'zlashtirishga qobiliyati kamroq bo'lgan talabalarda yuqori darajadagi xohish yoki motivatsiya bo'lsa, ular tilni yaxshi o'rganishadi. Agar talabalar chet tilini o'rganish kelajaklari uchun foydali deb tushunib tilni o'zlashtirsalar, bu ularga motivatsiya berib qisqa vaqt ichida tilni o'zlashtira oladilar. Shunday qilib chet tilini o'rganishda motivatsiya

hamda munosabatning ahamiyatini inobatga olib, ularning tilni o'rganishga bo'lgan qiziqishini orttirishga e'tibor qaratildi. Tadqiqotlar shuni ko'rsatdiki, chet tilini o'rganishda bu ikkila omil muhim deb topildi va olimlar tomonidan amaliy hamda nazariy tavsiyalar berildi.

Shunungdek, o'qituvchilar talabalarda tilni o'rganishga bo'lgan munosabatini va motivatsiyasini rivojlantirib, turli xil metodika hamda texnikalardan foydalanib darslarni samarali tashkil qilishlari zarur.

### Olimlarning qarashlari

Chet tilini o'rganish bo'yicha Gardner fikriga ko'ra, "Shaxs chet tilini o'rganishga bo'lgan istagi paydo bo'lsagina va bu inson chet tilini o'rganishga inlitilishidan dalolat beradi" deb aytadi. Oksford tahriridagi lug'atlarda motivatsiyaga nisbatan quyidagicha ta'rif berilgan. "Bir kishining harakatlari yoki xattiharakatlarida namoyon bo'lishi sifatida ta'rif berilgan". Motivatsiya mavhum tushuncha hisoblanib, motivatsiyani aniqlash qiyinchilik tug'diradi. Motivatsiya orqali chet tilini o'rganuvchi talabalar ajralib turadi, chunki ularda chet tilini o'rganishda ishtiyoqi baland bo'lganligi va ular chet tilini o'zlashtirishda yaxshiroq natijaga erishishi bilan ko'rinish turadi. Chet tilini o'rganuvchilar uchun motivatsiya muhim rol o'ynaydi. Agar tili o'rgatuvchi pedagoglar motivatsiyaning til o'rganish bilan bog'liqligini

tushunishmasa, ular darsni samarali tashkil qila olmaydilar. Motivatsiyaning mohiyati - bu insonning kuchli xohishi orqali namoyon bo'ladi. Bunda insonning ichki maqsadlari va istaklari orqali namoyon bo'ladi. Chet tilini muvaffaqiyatli o'rganuvchilar tilni o'zlashtirishda qaysi jihatida o'zlarini kuchli hamda zaif tomonlarini bilgan holda kuchli taraflari orqali oqsoqlanadiga sohalarini topib tilni samarali o'zlashtira oladilar. Motivatsiya chet tilini o'rgatish uchun ham eng faol metodlardan biri bo'lib, o'qituvchilar auditoriyada turli xil motivatsion treninglardan foydalanib tilni tushuntirishsa, talabalarning tilni tezroq o'zlashtirishga yordam beradi. Richardsning fikricha, motivatsiya insonning biror ishni bacharish istagini belgilovchi omil deb hisoblanadi. Bundan bilishimiz mumkinki, inson o'zi xoxlab bir ishni qilsagina, u o'z maqsadlariga erishadi. Chet

tilini o'rganishda munosabat va motivatsiyaning o'rni haqida Gardner va Lambert tomonidan ham o'rganilganda, ular quyidagicha izoh berishadi, "Ular motivatsiyani o'quvchining umumiy maqsadi va yo'nalishi sifatida, hamda munosabatni o'rganuvchining maqsadga intilishda ko'rsatgan qat'iyligi sifatida belgiladilar". Motivatsiyani ikki turga bo'linadi:

1. Integrativ motivatsiya - til o'rganuvchining maqsadi bilan bo'g'liq bo'lib bunda insonni til o'rganishiga turki vazifasini bajaradi. Chet tilini o'rganuvchilar o'zlariga til o'rganishni maqsad qilib qo'yganlarining sababi bunda shu xalqning ma'daniyati yoki shu xalq bilan ijtimoiy munosabatlarga kirishishga bo'lgan qiziqishi yoki xohishi kuchli bo'lganligi sababli chet tilini o'rganishadi. Bunday motivatsiya turi - integrativ motivatsiya hisoblanadi. Chet elga borgan shaxs o'sha muhitda yashayotgan paytida bunda integrativ motivatsiya orqali chet tilini o'rganishi samarali bo'ladi, chunki chet tilini o'rganuvchilar ijtimoiy munosabatlarga kirishish uchun shu xalqning tili va ma'daniyatini bilishi va qiziqishi muhim rol o'ynaydi. Integrativ motivatsiya til o'rganuvchining chet tilida talaffuzini yaxshilashi va shu tilda so'zlashishga bo'lgan qobiliyati oshiradi. (Finegan 1999, p.568). Tilni o'rganuvchi o'quvchi chet tilini o'zi xohlab o'rganishining sababi o'rganuvchi shu tilda so'zlashuvchi xalqlarning ma'daniyatiga hamda so'zlashuvchilar bilan muloqot qilish istagi borligi sababli o'rganadi.

2. Instrumental motivatsiya - o'quvchi ikkinchi tilni o'rganishda ma'lum bir maqsad yoki o'zining manfaatlardan kelib chiqib o'rganishi hisoblanadi. Masalan, ular chet tilini bilish orqali jamiyatda yaxshiroq ish topishni, imtihondan muvaffaqiyatli o'tishni hamda chet tilidagi yangi ma'lumotlarni gazeta va jurnallardan, ijtimoiy tarmoqlardan o'qiy olishni bilgan holda o'rganadi. Bunda esa ikkala motivatsiya turi ham chet tilini o'rganuvchilarga ta'sir qilishi mumkinligini aytib o'tilgan. Ammo, bir motivatsiya ikkinchisidan ko'ra samaraliroq bo'lishi mumkin. Ikkinchi tilni xorijiy til sifatida o'rganishda integral motivatsiyaning roli muhim deb ko'rsatilsa, chet tilini ikkinchi til tariqasida o'rganish orqali foydalanganimizda instrumental motivatsiyaning roli muhim hisoblanadi. Talabalar

loyihalash, ijod qilish, yozish, muammolarni yechish orqali yangi narsalarni o'rganadilar. Passivlik esa talabalarning motivatsiya va qiziqishlarining pasayishiga hamda til o'rganishga bo'lgan munosabatni susayishiga olib keladi. Talabalarning yangi ma'lumotlarni o'rganishlariga imkoniyat beradi. Ularning dars davomidagi ishtiroki va ishtiyoqi darsni tayyorlashiga yordam beradi. Kichik guruhlarga bo'linib va juftlikda o'tkaziladigan mashg'ulotlar talabaning o'ziga bo'lgan ishonchini oshiradi hamda ajoyib motivatsiya manbalaridan biri bo'lib xizmat qiladi. Guruh bo'lib ishslash talabalarga mavzu doirasida o'z fikr va g'oyalarini ifodalash imkonini beradi. Kichik guruhlardagi faoliyatdan so'ng, talabalar odatda butun sinf bilan suhbatlashishni istamaydilar. Guruhlarda faoliyat olib borish nafaqat o'z g'oyalarini ochiq bayon etish, balki hamkorlikda ishslash imkoniyatini ham ohib beradi, bu esa sinfning hamjihatligini shu qatorda motivatsiyani ham oshiradi.

### **Foydalilanigan adabiyotlar**

- [1] Gardner, R. C. (1985). Social psychology and language learning: The role of attitudes and motivation. London: Edward Arnold (p.10).
- [2] Ellis, R. (1997). The study of second language acquisition. Oxford University Press.
- [3] Finegan, E. (1999). Language: Its structure and use (3rd Ed.). Harcourt Brace
- [4] Taylor, D.M., Meynard, R., & Rheault, E. (1977). Threat to ethnic identity and second-language learning.
- [5] In H. Giles, Language, ethnicity and intergroup relations (pp. 99-118). Academic Press.
- [6] Lukmani, Y.M. (1972). Motivation to learn and language proficiency. *Language Learning*, 22, 261-273